

PLITONIT

PROFESSIONAL BO'LIH OSON



PLITONIT COLORIT FAST CLINKER QURUQ CHOK ARALASHMASI PLITONIT Colorit Fast Clinker (PLITONIT Fast Clinker)



Colorit Fast Clinker

30 mm gacha bo'lgan choklar uchun g'isht, klinker va boshqa turdagi plitkalaridan terish

Rangsizlanishdan himoya
Qo'l terisi uchun avaylovchi*

2-tasi 1-da –ishqalash va choklash eritmasi
Sho'rlanishdan himoya
Yuqori sovuqqa chidamlilik F150
Chokning yuqori mustahkamligi ≥ 20 MPa

Qo'llanish sohasi

Rangli chokli aralashma ichki va tashqi ishlarda g'isht, klinker plitka, pardozbop keramik plitalar yoki pardozbop tosh orasidagi choklarni to'ldirish uchun mo'ljallangan. Uy-joy va jamoat binolari va inshootlarini, shu jumladan o'quv-tarbiya muassasalari, bolalar, maktabgacha ta'lim, maktab va tibbiyot muassasalarini (shu jumladan davolash-profilaktika va sanatoriy-kurort muassasalarini) qurish va ta'mirlashda, kam qavatli uy-joy qurish va ta'mirlashda qo'llaniladi.

Foydalanish bo'yicha tavsiyalar

Tavsiya etilgan chok qalinligi 6 dan 30 mm gacha. Tavsiya etilgan asoslar: keramik, silikat va klinker qoplamali g'isht, tabiiy va sun'iy tosh, klinker plitka, keramik plitalar. "Nam tuproq" konsistensiyasidagi qatlam-qatlam kashtalash (chekankalash) yoki kashta ostiga shlamlash usulida maxsus to'pponcha yoki paket bilan surtilishi mumkin.

Birinchi uslub old g'isht, fakturali klinker plitkasi va boshqalar bilan ishlash uchun, ikkinchisi esa silliq yuzali plitka uchun tavsiya etiladi. Yangi qurilish uchun ham, qurilish choklarini yangilash uchun ham mos keladi. Aralashma PLITONIT Clinker Fix klinker plitkasi uchun yelimli tizimda binolar fasadini qoplash elementi sifatida ishlatiladi.

Ishlarni olib borishning yuqori tezligi, chokni shakllantirish va tozalashning osonligi. Tarkibidagi maxsus gidrofob qo'shimchalar tuzlarning hosil bo'lishini oldini oladi. Chokning kuchaytirilgan mustahkamlik xossalari va sovuqqa chidamliligi fasad ishlari sharoitida uzoq muddatli ishonchli yechimni ta'minlaydi. Qadoqlash — 25 kg.

Piktogrammalar/Texnik xarakteristikalar

- Tashqi va ichki ishlar uchun
- Chok 6-30 mm
- Yurish 12 soatdan keyin
- Suv bilan aloqa 24 soat
- Aralashmaning yashovchanligi 2 soat
- Aralashtirish 3 daqiqa
- Sovuqqa chidamlilik bo'yicha marka F150
- Siqilishdagi mustahkamlik ≥ 20 Mpa
- Qo'llash harorati $+5^{\circ}\text{C}$ dan $+30^{\circ}\text{C}$ gacha
- Foydalanish harorati -50°C dan $+70^{\circ}\text{C}$ gacha
- Yaroqlilik muddati 12 oy

Ranglar gammasi: 11ta ranglar

Material sarfi*

$\approx 2,5 \text{ kg/m}^2$ klinker plitkasi uchun 240x71x10 mm pistolet bilan surtilganda

$\approx 3,7 \text{ kg/m}^2$ klinker plitkasi uchun 240x71x10 mm "suyuq tuproq" konsistensiyasi bilan surtilganda

*Qurilishning boshida quruq aralashmaning amaliy sarfini aniq aniqlashtirish uchun choklarni sinov tariqasida to'ldirishni tavsiya qilamiz.

Ish olib borish sharoitlari

Ishlarni olib borishda va keyingi 3 sutka davomida havo, asos va plitkalarining harorati $+5^{\circ}\text{C}$ dan $+30^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'lishi kerak. Ishlarni olib borish jarayonida eritma aralashmasining harorati $+10^{\circ}\text{C}$ dan $+30^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lishi kerak. Foydalanish harorati $+70^{\circ}\text{C}$ gacha. Aralashma, shu jumladan, tashqi ishlar uchun ham mo'ljallangan. Ushbu turdagi ishlarda chok yuzasini ishlarni bajarish vaqtida va keyingi 24 soat davomida atmosfera yog'inlaridan himoya qilish kerak.

Asosni tayyorlash

Choklar tagiga qo'yiladigan asos kir va changdan tozalanadi, ajralgan bo'laklar olib tashlanadi. Chokning chuqurligi plitka qalinligining kamida yarmiga teng bo'lishi kerak. Choklarni shakllantirish, ishqalash yelimli qorishma ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Ohak aralashmasini tayyorlash

Quruq aralashmani tindirish uchun ichimlik suvidan foydalanish kerak. Aralashtirishda nisbat:

Ranglar	1 kg quruq aralashmaga/ 25 kg xaltaga "nam tuproq" konsistensiyasida zarb bilan sepish	1 kg quruq aralashmaga/25 kg xaltaga choklarni ishqalash uchun pistolet yoki paket bilan surtish
Oq, sarg'ish, och jigar rang, sariq	0,14-0,16 l suv/3,5 -4,0 l suv	0,24 0,27 l suv/6,0 -6,75 l suv
Kul rang, to'q kul rang, grafit, qora, jigar rang, shokolad rang, g'isht rang	0,10-0,12 l suv/2,5 3,0 -6,75 l suv	0,17-0,20 l suv/4,25 -5,0 l suv

Quruq aralashmani xona haroratida oldindan o'lchangan suvga quyning va elektr mikser yoki nasadkali elektrodrel yordamida bir xil konsistensiya olinmaguncha 2-3 daqiqa davomida aralashiring (aylanish tezligi 600 aylana/min. dan oshmaydi). Aralashmani 5 daqiqaga qoldiring va yana aralashiring. Qayta aralashirganda, yuqoridagi nisbatning maksimal qiymatiga qadar suv qo'shishga ruxsat beriladi. Tayyor aralashmani ishlatish vaqti 2 soatdan oshmaydi (yelvizak va yuqori harorat bu vaqtni kamaytiradi).

Ishlash tartibi

"Nam tuproq" konsistensiyasida qatlamlab (chekankalab) surtilganda:

Chokli eritma "yangidan yangi" texnikasida ikki qavat qilib surkaladi va bosish bilan tikib tekislanadi. Tekislik, bir xil surtish va ishlov berish keyingi choklar rangining bir xil bo'lishining kafolati hisoblanadi. Ishdagi tanaffuslar vaqtida g'isht terishni yopib qo'yish kerak.

Shlamlash usuli bilan choklarni ishqalash uchun pistolet yoki paket bilan surtilganda:

Choklar to'liq to'lgunicha choklarni ishqalash uchun maxsus pistolet yoki paket bilan surtiladi. Eritma "shlamlash" usuli bilan surkaladi yoki pistolet shprisdan bevosita plitalararo choklarga siqib chiqariladi. Tekislik, bir xil surtish va ishlov berish keyingi choklar rangining bir xil bo'lishining kafolati hisoblanadi. Choklarni hamma vaqt eritmani bir xil darajada qotirib tekislash kerak. Choklar yuzasi yopishib olingach, plitka darhol tozalanishi kerak. Choklarning qovushishi paypaslab tekshiriladi ("bosh barmoq" testi bilan). Plitka yuzasini gubkali qirg'ich yordamida choklar diagonali bo'yicha tozalab olinadi. Bunda eritmani choklardan yuvib yuborishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Agar eritma yuvilayotgan bo'lsa, bu eritmaning qotishining zarur bosqichiga hali erishilmaganligini bildiradi. Tozalash uchun suvni muntazam almashtirib turish kerak. Eritma qoldiqlarini yuza to'liq tozalanmaguncha yuvib tashlash kerak bo'ladi. Qoplama materialining yuzasini eritma qoldiqlaridan uzil-kesil tozalash quruq yumshoq mato yordamida amalga oshiriladi.

Diqqat

Ishlarni bajarishda siz umumiy qurilish ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar va qurilishda xavfsizlik choralariga amal qilishingiz kerak. Sotib olayotganda partiya nomeriga e'tibor bering, chunki rangning tovlanishi partiyadan partiyaga farq qilishi mumkin. Quyidagi sabablar rang tusiga va uning bir tekisligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin: plitkani quruq usulda dastlabki tozalash; namlikning pastligi va haroratning yuqoriligi; to'g'ridan to'g'ri quyosh nurlari va yelvizaklar; choklar chuqurligidagi farqlar; aralashtirish suvining me'yoridan ortiqligi va uning sifati; asosda namlikning ortiqcha miqdori; plitka, pardozebop g'isht yon qirralarining turlicha singdirish qobiliyati; notekis aralashgan aralashma. Sirlanmagan va g'adir-budur plitkalar orasidagi choklarni ishqalashdan oldin, ishqalash aralashmasining qoldiqlari plitkadan qanchalik yaxshi yuvilib ketishini tekshirish uchun choklarni sinov tariqasida to'ldirish kerak. Ishlarni bajarish jarayonida aralashmani vaqti-vaqti bilan aralashtirish tavsiya etiladi. Tayyor aralashmaga qo'shimcha miqdorda suv qo'shish taqiqlanadi. Zanglagan asbobdan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Eritmaning yashash vaqti suv harorati, quruq aralashma harorati va atrof-muhit haroratiga qarab o'zgarishi mumkin. Agar havo harorati +20°C dan +30°C gacha oraliqda bo'lsa, u holda ishlarni boshlashdan oldin choklarni qo'shimcha namlash kerak.

EHTIYOT CHORALARI

Aralash GOST 12.1.007 bo'yicha 4-xavfli sinfga (past xavfli moddalar) tegishli. Ishni bajarayotganda qo'lqop, himoya ko'zoynagi va respirator himoya vositalaridan foydalaning. Aralashmaning teriga va ko'zlarga tegishidan saqlaning. Ko'z bilan aloqa qilganda, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang. **BOLALARDAN UZOQ SAQLANG!**

Tarkibi Qum, portlandsement, mineral to'ldiruvchi, modifikatsiyalovchi qo'shimchalar

Tashish va saqlash shartlari

Yuklarni tashish qoidalariga muvofiq yopiq transport vositalarida tashish. Qadoqning saqlanishini va namlanishning oldini olishni ta'minlaydigan sharoitlarda yopiq quruq xonalarda saqlash.

Ishlab chiqaruvchi kafolati

Ishlab chiqaruvchi iste'molchi tomonidan tashish, saqlash shartlariga va ushbu yo'riqnomaning ko'rsatmalariga rioya qilinganda aralashmaning texnik shartlar talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Ishlab chiqaruvchi material bilan ishlash texnologiyasiga rioya qilmagan taqdirda, shuningdek uni mazkur yo'riqnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda va shartlarda qo'llaganlik uchun javobgar bo'lmaydi. GOST 8.579-2019 ga muvofiq netto massasidan og'ish.

Mahsulotdan fuqarolik qurilishining barcha turlarida foydalanishga ruxsat etilgan ($A_{eff} < 370$ Bk/kg, Radiatsiyaviy xavfsizlik me'yorlari-99/2009 bo'yicha Sanitariya qoidalari va normalari 2.6.1.2523-09).
TU 23.64.10-229-51552155-2022 bo'yicha ishlab chiqarilgan
CTP belgisi

** Moskva shahar gigiyena va epidemiologiya markazining Ekspert xulosasiga asosan aralashma teri-rezorbtiiv va sensibilizatsiyalovchi ta'sirga ega emas. Bir marta ta'sir etilganda teri qoplamlariga qo'zg'atuvchi ta'sir bo'lmaydi, takroriy ta'sirda kuchsiz bo'ladi. Mazkur yo'riqnomaning EHTIYOT CHORALARI blokiga muvofiq shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

